

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

JURAYEV JAMSHID SUNATILLOYEVICH

**QUYI ZARAFSHON LANDSHAFTLARINING CHO‘LLANISH
JARAYONLARINI GEOFAZOVIIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA
BAHOLASH VA KARTALASHTIRISH**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geographical sciences**

Jurayev Jamshid Sunatilloevich

Quyí Zarafshon landshaftlarining cho‘llanish jarayonlarini geofazoviy
texnologiyalar yordamida baholash va kartalashtirish 3

Жураев Жамшид Сунатиллоевич

Оценка и картографирование процессов опустынивания ландшафтов
Нижнего Зарафшана с использованием геопространственных технологий... 21

Juraev Jamshid Sunatilloevich

Evaluation and mapping of desertification processes of Lower Zarafshan
landscapes using geospatial technologies 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

JURAYEV JAMSHID SUNATILLOYEVICH

**QUYI ZARAFSHON LANDSHAFTLARINING CHO‘LLANISH
JARAYONLARINI GEOFAZOVIIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA
BAHOLASH VA KARTALASHTIRISH**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Gr331 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mohd Nazish Khan**
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Boymirzayev Karimjon Mirzaxmedovich**
geografiya fanlari doktori, professor

Rasulov Anvar Baxodirovich
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 19-noyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh. Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (+99899) 776-77-25), faks: (+99866) 239-11-40; e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№____-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Universitet xiyoboni, 15 uy.Tel: (+99866) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3-noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 22-oktabrdagi №19-raqamli reyestr bayonnomasi).



S.B.Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, geografiya fanlari doktori, professor

B.A.Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, geografiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

Q.S.Yarashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, geografiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi kunda cho‘llanish insoniyat oldida turgan global muammolardan biri bo‘lib, tabiat va jamiyatga katta iqtisodiy, sotsial va ekologik zararlar yetkazmoqda. Cho‘llanish jarayoni iqlim o‘zgarishi natijasida yog‘inlar miqdorining kamayishi, shamol tezligining takrorlanishi va ularning tuproq eroziyasi, o‘simliklar rivojlanishi hamda deformatsiyalanishiga ta’siri, sug‘oriladigan maydonlar va uning atrofidagi yerlarning ikkilamchi sho‘rlanishi, tuproq degradatsiyasi va deflyatsiyasining ortib borishi kabi muammolar bilan bog‘langan. Bu muammolarga qarshi kurashishga xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha dasturining 15-bandida «quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish, tiklash va ulardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlar degradatsiyasini to‘xtatish, biologik xilma-xillikni yo‘qolishini oldini olish» ga qaratilgan vazifalarida belgilangan. Mazkur vazifalar landshaftlarda, tabiiy hamda antropogen omillar ta’sirida ro‘y berayotgan cho‘llanish jarayonlarini monitoring qilish, ularning dinamik holatini baholash va kartalashtirishni takomillashtirishni taqozo etadi.

Dunyoda landshaftlarni muhofaza qilish va cho‘llanishga qarshi kurashish sohasida meliorativ tadbirlarni olib borish, landshaft tadqiqotlarini zamonaviy metodlarga tayangan holda amalga oshirish, cho‘llanish jarayonini baholash, tizimli baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda cho‘llanishni vujudga keltiruvchi omillarni aniqlashni ilmiy asosda hal etish yo‘llarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar bajarilmoqda. Bu borada global iqlim o‘zgarishi sharoitida hududlarning NDVI (Normallashtirilgan farqli vegetatsiya indeksi)larini aniqlash, tuproq meliorativ holati va tuproq qatlami granulometrik hajm indeksini, suv resurslari dinamikasini, yer yuzasi albedosini geofazoviy texnologiyalar asosida baholash, cho‘llanish jarayonining landshaftlarga ta’sirini hamda landshaftlarda sodir bo‘layotgan murakkab dinamik jarayonlarni tadqiq etish, prognozlashtirish hamda kartalashtirish, masofadan zondlash metodi yordamida kosmik suratlarni tahlil qilish, GAT texnologiyalari asosida modellashtirish jarayoni orqali xo‘jalikda landshaftlardan majmual va samarali foydalanishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamiz miqyosida ekologik xavfsizlikka tahdid soluvchi atmosfera havosining ifloslanishi, qurg‘oqchilik, cho‘llashish, qishloq xo‘jalik yerlarining yaroqsiz holatga kelishi, aholi salomatligining yomonlashuvi, zilzila, ko‘chkilar, sel kelishi, surilma kabi geografik jarayonlarni bartaraf etish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning 79-81-maqсадlarida “Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish”, “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish”¹ yuzasidan muhim vazifalar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 20.02.2022, PF-60 sonli farmoni.

belgilab berilgan. Bu borada, landshaftlarda yuzaga kelayotgan qurg'ochilik, chang-tuz bo'ronlari, cho'llanish kabi jarayonlarni geofazoviy texnologiyalarni keng qo'llagan holda monitoring qilish, geografik baholash va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 12-dekabrda "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-mayda "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-mayda PF-5065-sonli "Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-fevralda PQ-4204-sonli «O'zbekiston Respublikasida cho'llanish va qurg'ochilikka qarshi kurashish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyunda PF-5742-sonli "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-fevralda PQ-71-son "Qishloq xo'jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII "Yer haqidagi fanlar", V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi"ning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Cho'llanish muammolari bilan xorijda va MDH mamlakatlarida R.Odingo, H.E.Dregne, H.N Houerou, J.C.Chernay, I.S.Zonn, M.X.Glyans, N.S.Orlovskiy, G.S.Kust, M.G.Xarin, N.T. Nechayeva, V.N. Nikolayev, A.Habes, C.Longjun, Y.Zhang, J.A.Mabutt, M.G.Xarin, A.G.Babayev, B.A. Kovda, K.Qurbonmurodov, A.Mirzabayev, va boshqa bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

O'zbekistonda cho'llanish jarayonining turli hududlarda rivojlanishi va uni kartalashtirish masalalari bilan S.B. Abbasov, A.Abdulqosimov, L.A.Alibekov, A.A.Rafiqov, V.A. Rafikov, V.A.Popov, V.Y.Chub, G.F.Tetyuxin, A.V. Ptichnikov, T.Muqimov, A.Raxmatullayev, Z.Gafurov, L.O.Gafurova, O.Adilova va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Ammo, ushbu tadqiqot ishlarida landshaftlar cho'llanishining geofazoviy texnologiyalari asosida monitoring qilish, tarqalish ko'lami va cho'llanish darajasini baholash va prognozlashtirish ishlari bajarilmagan. Mazkur dissertatsiya ishi aynan shu ilmiy-amaliy masalalarni tadqiq etishga bag'ishlangan.

Geofazoviy texnologiyalari asosida hududlarni tez va samarali o'rganish imkoniyati mavjud bo'lib, an'anaviy dala tadqiqotlariga nisbatan geofazoviy metodlar vaqt va iqtisodiy resurslarni ma'lum darajada kamroq sarflashga imkon

beradi. Shuningdek, geofazoviy texnologiyalar yordamida landshaftlarda yuz berayotgan ekologik o'zgarishlarni samarali kuzatish, tahlil qilish va baholash mumkin.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining "Janubiy-G'arbiy O'zbekiston geosistemalarini baholash, kartalashtirish" nomli kafedra bosh mavzusi (2020-2025 yy) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi landshaftlarda cho'llanish jarayonini geofazoviy texnologiyalar yordamida monitoring qilish, kartalashtirish, baholash hamda uning ko'lami va darajasini aniqlash asosida ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Quyi Zarafshon landshaftlarining cho'llanishiga ta'sir ko'rsatuvchi iqlim ko'rsatkichlari va tuproq haroratini o'simliklarning o'sishiga va tuproqning kimyoviy, fizik xususiyatlariga ta'sirini aniqlash;

sug'oriladigan maydonlarda ko'p yillik sho'rlanish darajalari hamda suv-tuz miqdorini aniqlash;

geografik axborot tizimlari yordamida turli yillar uchun Normallashtirilgan farqli vegetatsiya indeksi (NDVI), Tuproq ustki qatlamining donadorlik hajmi indeksi (TGSI), yer yuzasi albedosi kartalarini tayyorlash;

landshaftlarining cho'llanish jarayonlarini geofazoviy texnologiyalar asosida baholash kartalarini ishlab chiqish;

Tadqiqot obyekti sifatida Quyi Zarafshon landshaftlari olingan.

Tadqiqot predmeti landshaftlarda cho'llanish jarayonining geofazoviy texnologiyalar yordamida baholash va kartalashtirishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida dala tadqiqoti, kartografik, taqqoslash, statistik, masofadan zondlash, landshaft-geokimyoviy usullari hamda GAT texnologiyalaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

havo harorati, atmosfera yog'inlari va tuproq haroratining hududdagi o'simliklarning fenologik o'zgarishlariga va tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlariga ko'rsatayotgan bosimi asosida iqlim o'zgarishining cho'llanish jarayoniga bo'lgan ta'sir mexanizmlari aniqlangan;

hududda tuproq unumdorligini yaxshilash va o'simliklarning barqaror o'sishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish metodikasi takomillashtirilgan;

sug'oriladigan hududlardagi sho'rlanish darajasi va suv-tuz miqdorining ko'p yillik dinamikasi tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi hosildorligiga ta'siri baholangan hamda sho'rlanishni kamaytirish va sug'orish resurslarini samarali boshqarish uchun ilmiy asoslangan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

GAT texnologiyalaridan foydalangan holda normallashtirilgan farqli vegetatsiya indeksi (NDVI), tuproq ustki qatlamining donadorlik hajmi indeksi (TGSI), va yer yuzasi albedosi bo'yicha 1990-2020-yillar oralig'i uchun kartalar yaratilgan va

hududiy cho'llanishni samarali kuzatish hamda baholash bo'yicha innovatsion usullar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Quyi Zarafshon landshaftlarining tabiiy geografik xususiyatlari va iqlim ko'rsatkichlari kompleks baholangan va istiqbolda barqaror rivojlanish yo'nalishlari aniqlangan;

sug'oriladigan maydonlarda uzoq yillar davomida sho'rlanish dinamikasi va suv-tuz balansining miqdoriy ko'rsatkichlari aniqlangan;

geografik axborot tizimlari yordamida turli yillar uchun Normallashtirilgan farqli vegetatsiya indeksi (NDVI), Tuproq ustki qatlamining donadorlik hajmi indeksi (TGSI), yer yuzasi albedosi kartalarini yaratish usullari takomillashtirilgan;

landshaftlarining cho'llanish jarayonlarini geofazoviy texnologiyalar asosida baholash kartalari ishlab chiqilgan;

Quyi Zarafshon landshaftlari iqlim o'zgarishi sharoitida tahlil qilinib, ulardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishi natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazi (O'zgidromet), Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya boshqarmasi, Buxoro viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlaridan cho'llanish jarayonlarini tadqiq etishda, landshaftlarning cho'llanish darajasini baholash va kartalashtirishda geofazoviy texnologiyalar asosida olingan ma'lumotlarning mos kelganligi, xulosa, takliflar va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati landshaftlardagi cho'llanish jarayonlarini geofazoviy texnologiyalar asosida o'rganilganligi, turli masshtabdagi cho'llanish kartalari tuzilganligi, cho'llanishni rivojlanish darajasini aniqlashda, baholashda masofadan zondlash usullari yordamida takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Quyi Zarafshon landshaftlarda cho'llanishning oldini olish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar iqlim o'zgarishi va antropogen yukning oshishi natijasida sodir bo'layotgan tabiiy inqirozning oldini olishda, tabiiy resurslardan, cho'l yaylovlardan samarali foydalanishda muhim amaliy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Quyi Zarafshon landshaftlarining cho'llanish jarayonini tadqiq etish va kartalashtirishga doir olingan natijalar asosida:

Quyi Zarafshonning havo harorati, atmosfera yog'inlari va tuproq harorati hududdagi o'simliklarning o'sib rivojlanishi hamda iqlim o'zgarishining cho'llanish jarayonlariga ta'siri tasniflaridan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 10-maydagi 05/06-02-450-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, iqlim o'zgarishi tabiiy va madaniy o'simliklarning biologik mahsuldorligini pasayishiga hamda atrof-muhit degradatsiyasining oldini olish

bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini bergan;

Quyida Zarafshon hududida tuproq unumdorligini yaxshilash va o'simliklarning barqaror o'sishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 10-maydagi 05/06-02-450-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kelgusida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy o'zgarishlarni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini bergan;

sug'oriladigan hududlardagi tuproq sho'rlanish darajasi va suv-tuz miqdorining ko'p yillik dinamikasi tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga ta'siri baholangan hamda tuproq sho'rlanishini kamaytirish va suv resurslarini samarali boshqarish rejasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 10-maydagi 05/06-02-450-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kelgusida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy o'zgarishlarni oldini olish uchun chora tadbirlar ishlab chiqish imkonini bergan;

GAT texnologiyalaridan foydalangan holda Quyida Zarafshon hududining Normallashtirilgan farqli vegetatsiya indeksi (NDVI), tuproq ustki qatlaminin donadorlik hajmi indeksi (TGSI) va yer yuzasi albedosi cho'llanish darajasi indeksi bo'yicha 1990-2020-yillar oralig'i uchun turli mavzudagi kartalar O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 10-maydagi 05/06-02-450-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, landshaftlardagi cho'llanish jarayonini baholash, cho'llanishga uchrayotgan yangi hududlarni aniqlash hamda ularga qarshi samarali kurashish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 9 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning matn qismi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida bajarilgan tadqiqotning dolzarbligi va o'rganish zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari belgilab olingan, shuningdek, Respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va

amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Geofazoviy texnologiyalar asosida landshaft cho'llanishi jarayonlarini baholash va kartalashtirishning ilmiy-nazariy asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida cho'llanish atamasining kelib chiqishi, cho'llanishga turli tadqiqotchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflar, shuningdek, landshaft cho'llanishini tabiiy geografik baholashdagi yondashuvlar, metod va metodologiyalar, geofazoviy texnologiyalar asosida landshaft cho'llanishi jarayonlarini baholash va kartalashtirishda qo'llaniladigan metodlar yoritilgan.

Cho'llanishga bog'liq jihatlarni dastlab mutaxassislar "cho'lni bostirib kirishi", "cho'lni harakatlanishi" yoki "cho'lni rivojlanishi" deb ta'riflagan.

XX asrning boshlarida olimlar "cho'llanish" so'zi o'rniga quyidagi iboralarni qo'llaganlar. Jumladan, E.W. Bovill (1921), E.P. Stebbing (1935) va H. Klintvort (1948) "cho'l istilosi" deb atagan. W.C. Lovdermilk (1935) "sun'iy cho'llar" atamasini qo'llagan bo'lsa, H. Flohn "cho'lning oldinga siljishi" deb ilmiy ishlarida foydalangan. P.B. Sears (1959) "siljiyotgan cho'llar" haqida yozgan, R.W. Kates va boshqalar (1977) "cho'l sharoitlarining intensivlashuvi" iborasini kiritgan. E. Ekholm va L.R. Braun (1978) esa bu muammoni "kengayayotgan cho'llar" deb izohlagan.

Bugungi kunda cho'llanish atamasiga dunyo miqyosida mutaxassislar tomonidan bergan ta'riflar juda ko'p bo'lib, ulardan biri, BMTning cho'llanishga qarshi kurashish Konvensiyasida "Cho'llanish — bu iqlim o'zgarishi va inson faoliyati ta'siri natijasida quruq, yarim quruq va qurg'oqchil subnam hududlarda yerning degradatsiyaga uchrashi jarayonidir" deb ta'riflanadi. Ushbu, tadqiqot ishida cho'llanish tushunchasini yoritishda BMT tomonidan ta'kidlangan ta'rifga asoslangan.

Tabiiy geografik tadqiqot usullari foydalanish maqsadiga ko'ra turlicha tasniflanadi. Joylarda ma'lumotlar olish uchun foydalaniladigan tadqiqot usullariga ekspeditsiya, geofizik, geokimyoviy, kartografik, landshaftli indikatsiya, aerokosmik indikatsiya, paleogeografik va boshqalar kiradi. Tadqiqotning masshtabi va qo'yilgan maqsadga ko'ra, marshrutli va maydon bo'yicha tekshirish o'tkazishdan iborat.

Cho'llanish jarayonlarini tematik kartalashtirishdagi eng muhim talablaridan biri bu tizimli yondashuvdan foydalanishdir. Bu bir-biriga bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi, aerokosmik suratlar asosida tuzilgan xaritalar to'plamidir. Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatdiki, o'rganilayotgan hudud uchun turli mavzudagi va turli masshtabdagi xaritalar qanchalik ko'p tuzilsa, landshaftlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar shunchalik chuqur va batafsil ochib beriladi.

Geofazoviy texnologiyalar cho'llanish jarayonlarini baholashda yuqori aniqlikda, keng qamrovli va dinamik monitoring qilish imkonini beradi. Mazkur texnologiyalar cho'llanishga qarshi kurashish va tabiiy resurslarning boshqaruvini amalga oshirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Cho'llanish jarayonlarini aniqlash, monitoring qilish va tahlil qilishda

geofazoviy texnologiyalar, xususan, masofadan zondlash va geografik axborot tizimlari muhim vosita hisoblanadi. Shu maqsada, Quyi Zarafshoning Normallashgan farqli vegetatsiya indeksi (NDVI), tuproq ustki qatlamining donadorlik hajmi indeksi (TGSI) va yer yuzasi albedosi indeksleri asosida turli yillarga oid tasvirlarni taqqoslash orqali cho'llanishning surati, yo'nalishi va intensivligi aniqlandi. Shuningdek, Tadqiqotda cho'llanish ma'lumotlarini ajratib olish uchun Albedo-NDVI va Albedo-TGSI Xususiyatlar fazosi modellaridan foydalanib bir xil usulda modellar ishlab chiqildi va cho'llanish jarayonlari baholandi.

Dissertatsiyaning «**Quyi Zarafshon landshaftlarining cho'llanish jarayonlarini rivojlanishiga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen omillar**» deb nomlangan ikkinchi bobida, global iqlim o'zgarishi sharoitida landshaftlarning cho'llanish jarayoniga ta'siri hamda suv resurslari dinamikasi, tuproq sho'rlanish jarayonlarining cho'llanishga ta'siri yoritilgan.

Cho'llanish jarayonlariga iqlim elementlari katta ta'sir ko'rsatadi, shu sababli Quyi Zarafshonning iqlim ko'rsatkichlari ya'ni havo harorati, yog'ingarchilik, shamol tezligi, tuproq harorati to'g'risidagi o'rtacha ko'p yillik ma'lumotlar tahlil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazining (O'zgidromet) ma'lumotlari asosida, Quyi Zarafshonda joylashgan Buxoro aviameteostansiyasi, Oyoqog'itma meteostansiyasi, Qorako'l meteostansiyasidan olingan 1980-2020-yillardagi 40 yillik o'rtacha havo haroratining yillararo o'zgarishi grafig tahlili shuni ko'rsatadiki, Buxoro aviameteostansiyasi +1,4 °C, Oyoqog'itma meteostansiyasi + 0,9 °C, Qorako'l meteostansiyasida + 1,3 °C ga ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin. Atmosfera havosining ifloslanishi, changli bo'ronlar, yer yuzasi albedosining o'zgarishi, suv havzalarining maydoni kengayishi yoki qisqarishi, sug'orma dehqonchilik maydonlarining kengayishi hududda havo haroratining ko'tarilishiga sabab bo'lib, bu esa landshaftlarning cho'llanishini jadallashtirgan.

Quyi Zarafshonning 1980-2020-yillar davomidagi yog'ingarchiliklar miqdori O'zgidromet ma'lumotlari asosida tahlil qilganda, Oyoqog'itmada 30 mm, Buxoroda 10 mm, Qorako'l meteostansiyasida 15 mm ga kamayib borganligi aniqlandi.

Tuproq harorati qurg'oqchil, yarim qurg'oqchil va quruq subgumid zonalarda yerlarning degradatsiyasi va cho'llanishda asosiy rol o'ynaydi. Quyi Zarafshonning turli joylarida tuproq haroratining vaqtinchalik o'zgarishi o'simliklarning o'sishiga ta'sirini o'rganish maqsadida, Buxoro, Qorako'l va Oyoqog'itma meteorologik stansiyalarining 1980-2020-yillar bo'yicha olingan tuproq harorati ma'lumotlari o'rtacha yillik harorat, o'rtacha yillik maksimal va minimal haroratga bo'lib o'rganildi. Natijada, Buxoroda +1 °C, Qorako'lda +1,8 °C, Oyoqog'itmada o'rtacha tuproq harorati +2 °C oshgani ma'lum bo'ldi.

Cho'llanish jarayonlarining rivojlanishida suv resurslari taqchilligi va sifatining yomonlashishini muhim omillardan biri sifatida ko'rsatish mumkin. Yer osti va yer usti suvlarining sifati o'simliklarning o'sishi va ko'payishi yoki

o‘simlik qoplaminig yo‘qolishi, shuningdek, tuproqlarda zararli turli xil kimyoviy moddalar to‘planishiga sabab bo‘lishi tahlil qilindi.

Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiyasining 2011-2022-yillar davomidagi ma‘lumotlari asosida Quyi Zarafshonning kirish qismidagi suvlari va chiqish qismida zax tashlama suvlarining o‘rtacha sho‘rlanish darajasi tahlil qilindi. 2011-yilda Quyi Zarafshonning kirish qismidagi suvlarda qattiq cho‘kmalar 1,3 g/l ga (5599,4 ming tonna), xlor miqdori 0,14 g/l (618,2 ming tonna) ga teng bo‘lgan bo‘lsa, hududning chiqish qismidagi zax tashlama suvlarida qattiq cho‘kmalar 3,5 g/l (7073,4 ming tonna), xlor 0,45 g/l (901,4 ming tonna) teng bo‘lgan. So‘ng suvning sho‘rlanish darajasi oshib borib, 2016-yilda kirish qismida, qattiq cho‘kmalar miqdori 1,5 g/l ga, xlor darajasi 0,16 g/l ga, chiqish qismida esa qattiq cho‘kmalar 3,5 g/l, xlor 0,37 g/l tashkil etgan. Lekin, Quyi Zarafshonda sug‘orish va drenaj infratuzilmasini modernizatsiya qilinishi, zamonaviy sug‘orish texnologiyalarini tatbiqi, qishloq xo‘jalik ekin maydonlari tarkibi va ekin turlarining o‘zgarishi oqibatida 2022-yil hudud kirish qismida suvda qattiq cho‘kmalar 0,9 g/l (3308,0 ming tonna) ga, xlor miqdori 0,13 g/l (484,3 ming tonna) ga, chiqish qismida 3,1 g/l (5204,3 ming tonna), va 0,39 g/l (665,7 ming tonna) gacha tushgan.

Tuproq gruntlarining birlamchi va ikkilamchi sho‘rlanish jarayonlarining rivojlanishi yerlarning cho‘llanishiga olib keluvchi asosiy omillardan bo‘lib, o‘simliklarning tabiiy rivojlanishiga va hosildorligiga salbiy ta‘sir etadi. Sho‘rlanish yoki sho‘rlangan tuproqlarning rivojlanishi, odatda, yerlarning cho‘llanishiga olib keladigan degradatsiya jarayonidir.

Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiyasining Buxoro viloyati sug‘oriladigan maydonlarning 1990-2022-yillar davomida meliorativ holatini to‘g‘risida berilgan ma‘lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, sho‘rlanmagan va kuchsiz sho‘rlangan yerlar maydoni kengaygan, aksincha, o‘rtacha sho‘rlangan hamda kuchli sho‘rlangan yerlar miqdori qisqargani ma‘lum bo‘ldi. Hudud jami sug‘oriladigan maydonlarning sho‘rlanish darajasi 1990-yil 95,9 foiz bo‘lgan, 2022-yilga kelib 11,1 foizga qisqarib 84,8 foizni tashkil etgan.


So‘ngi yillarda Quyi Zarafshon sug‘oriladigan maydonlarida sho‘rlanish darajasining kamayishi, sho‘rlangan yerlarni yuvish, kolektor-drenaj va irrigatsiya tizimlarini qurish hamda tozalash, yer osti suvlari sathining pasayishi, ekin ekish texnologiyasi va xokazolarni tasiri natijasidir.

Dissertatsiyaning **«Quyi Zarafshon landshaftlarining cho‘llanish jarayonlarini geofazoviy texnologiyalar asosida baholash va kartalashtirish»** deb nomlangan uchinchi bobida, asosan, Quyi Zarafshonning 1990, 2000, 2010 va 2020 yillar uchun 1:1500 000 masshtabdagi NDVI va TGSi hamda yer yuzasi albedosi kartalari shuningdek, Quyi Zarafshon landshaftlari cho‘llanish darajasi indeksi kartalari tayyorlandi va cho‘llanish jarayonlari baholandi.

Quyi Zarafshonning Normallashgan farqli vegetatsiya indekini aniqlashda 1990, 2000, 2010 va 2020-yillar uchun 40 yillik Landsat ma‘lumotlari (EarthExplorer United States Geological Survey) dan yuklab olindi. Yuklab

olingan ma'lumotlar ArcMap 10.5 dasturiga kiritilib turli qatlamlar va mozaikalar asosida Normallashtgan farqli vegetatsiya indeksi xaritalari yaratildi. Bu tadqiqot hududida o'simlik bilan qoplangan va qoplanmagan joylarni ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Past qiymatlar suv, ochiq yerlar va o'simlik yo'qligini ko'rsatsa, yuqori qiymatlar butalar, butazorlar, qishloq xo'jaligi yerlari va yashil o'simliklarni bildiradi. Quyi Zarafshon NDVI qiymatlari 1990, 2000, 2010 va 2020-yillarida mintaqada o'simlik qoplami doimiy ravishda kamayib borayotganini aniq ko'rsatadi bu hududda cho'llanish jarayonlarini ifodalaydi.

Normallashtgan farqli vegetatsiya indeksi 1990-yil uchun Landsat 5 ma'lumotlari GAT tizimi orqali NDVI qatlamini hosil qilish uchun kiritildi. NDVI natijalari -0,65 dan 0,76 gacha o'zgaradi. Hududning g'arbiy cho'l qismida o'simlik qoplami juda past, cho'llanish jarayoni kuchli hisoblanadi, Buxoro va Qorako'l vohalarida vegetatsiya qoplami zich, janubiy cho'l mintaqalarida esa o'simlik kam, asosan sho'rxoklar va qumlar egallagan. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Buxoro va Qorako'l vohalari intensiv dehqonchilik bilan, uning atrofidagi hududlar chorvachilik uchun qulay bo'lgan cho'l yaylovlari bilan qoplangan. Biroq, tadqiqot hududining katta qismi cho'l mintaqasi bilan band. NDVIning yuqori qiymatlari shuni ko'rsatadiki, suv resurslarining yetarli maydonlarda o'simlik qoplami zich hisoblanadi.



1-rasm. Quyi Zarafshonning Normallashtgan farqli vegetatsiya indeksi xaritasi (1990-2020 yy.)

2000-yil uchun Normallashtgan farqli vegetatsiya indeksi Landsat 5 sun'iy yo'ldosh ma'lumotlaridan olinib hisoblangan. Natijalar -0,71 dan 0,89 gacha bo'lgan qiymatlarni ko'rsatadi. Bu yerda ikki muhim jihat mavjud ko'rsatkichlar salbiy va ijobiy yo'nalishlarda qiymatlarning oshganini ko'rsatadi. Salbiy

qiymatlar hududda o'simlik qoplami yo'qligini ko'rsatadi, yuqori salbiy qiymatlar so'nggi 10 yil ichida tuproq sho'rlanishining kuchayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ijobiy yuqori qiymatlar o'simliklarning sog'lom va zich ekanligini bildiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mintaqada cho'llanish tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan, ammo tadqiqot hududining shimoli-sharqiy qismida ba'zi joylar sog'lom o'simliklar bilan qoplangan, shuningdek, Qorako'l vohasida 1990-yilga nisbatan 2000-yilda o'simlik qoplamini yuqoriroq bo'lganini ko'rishimiz mumkin.


Normallashtirilgan farqli vegetatsiya indeksi (NDVI) 2010-yil uchun NDVI natijalari -0,94 dan 0,99 gacha o'zgaradi. Mazkur yilda NDVI qiymatining oshishi kuzatildi, bu o'simlik qoplami zichligining oshgani va tuproqning qisman unumdorligi tiklanganini ko'rsatadi. Bunga qishloq xo'jaligi faoliyatining rivojlanishi va iqlim sharoitining qulayligi sabab bo'lishi mumkin. Biroq, sog'lom o'simlik NDVI qiymatlari yuqori bo'lgan Buxoro vohasining shimolida va Qorako'l vohasida 2000-yilga nisbatan 2010-yilda o'simlik qoplami kamayganini ko'rishimiz mumkin.

2020-yilda NDVI qiymatlari eng past -0,50 dan 0,59 gacha bo'lgan ko'rsatkichni ko'rsatadi bunga sabab quruq iqlim va tuproq sho'rlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. NDVI ko'rsatkichlari yillar davomida o'zgaruvchan bo'lib, bu o'simlik qoplami va tuproq holati kabi omillar ta'sir qilganini ko'rsatadi. 1990-2020-yillarda NDVI qiymatlari pasayishiga iqlim, tuproq fizik va kimyoviy xususiyatlarining holati, suv yetishmovchiligi yoki yerdan noto'g'ri foydalanish natijasida yuz bergan bo'lishi mumkin (1-rasm).

Tadqiqotda Quyi Zarafshonning Tuproq ustki qatlami donadorlik hajmi indeksi (TGSI) ham tadqiq etildi. Bu tuproqning mexanik tarkibi bilan bog'liq bo'lib, tuproq yuzasidagi qum tarkibining dag'alroq bo'lishini ko'rsatadi. Cho'llanish qanchalik kuchli bo'lsa, tuproqning yuqori qatlamining granulometrik tarkibi shunchalik dag'al bo'ladi.

Tuproq ustki qatlamining donadorlik hajmi indeksini aniqlashda Landsat sun'iy yo'ldosh tasvirlaridan foydalanilgan holda baholandi. Tadqiqot maydonini qamrab oluvchi sun'iy yo'ldosh tasvirlari olindi hamda tasvirlar 1990, 2000, 2010, 2020-yillar uchun USGS Earth Explorer onlayn tarqatish tizimidan yuklab olindi. Har bir rezolyutsiya 30 metrli fazoviy aniqlikka ega bo'lib, rezolyutsiyalarining har bir 30x30 metrli pikselini ifodalaydi. Yuklab olingan tasvirlar ArcMap 10.5 dasturiga joylashtirilib, turli qatlamlar va mozaikalar asosida Tuproq ustki qatlami donadorlik hajmi indeksi xaritalari yaratildi.

Tuproq ustki qatlamining donadorlik hajmi indeksi 1990-yil uchun natijalari olinib, -0,55 dan 0,10 gacha bo'lgan qiymatlarda aniqlangan. Tuproq ustki qatlamining donadorlik hajmi indeksi past qiymatlari suv va o'simliklarga mos keladi, yuqori qiymatlar esa mayda qumlarga mos keladi. Tadqiqot hududi cho'llanishning murakkab ko'rinishini namoyish etadi. Shuningdek, tadqiqot hududidagi suv resurslarining notekis taqsimlanganligi va o'simlik qoplami, asosan, Buxoro va Qorako'l vohalarida mavjud. Voha hududlaridan uzoq masofadagi hududlar o'rtacha qiymatlarni ko'rsatib, cho'llanishga moyilligini bildiradi.



2-rasm. Quyi Zarafshonning tuproq ustki qatlam donadorlik hajmi indeksi xaritasi (1990-2020 yy.)

2020-yil uchun tuproqning ustki qatlamining donadorlik indeksining natijalari -0,24 dan 0,26 gacha o'zgaradi. Mazkur yilda salbiy qiymatlar (-0,72- -0,32 va -0,32- -0,19) 2010-yildagiga nisbatan kamaygan. Bu hududning biologik xilma-xilligi, o'simlik va suv resurslari sifatini doimiy ravishda yo'qotayotganini ko'rsatadi. Tuproq ustki qatlamining donadorlik hajmi indeksi salbiy qiymatlari suv va o'simliklarni ifodalaydi, yuqori qiymatlar esa cho'lga olib keluvchi mayda qumlarni ko'rsatadi. Ijobiy qiymatlar -0,06 -0,26 tuproq yuzasida mayda qum miqdori yuqori bo'lgan maydonlar hisoblanadi, ushbu toifadagi qiymatlar miqdori 2020-yilga kelib hududning g'arbiy, shimoliy va sharqiy qismlarida keskin oshgan, bu Quyi Zarafshonda cho'llanishning kuchayganligini ko'rsatadi (2-rasm).


Yer yuzasining albedosi oshishi o'simlik qoplaminin kamayishi va tuproq yuzasining ochilib qolishi bilan bog'liq bo'lib, bu holat cho'llanish jarayonining muhim belgisi hisoblanadi. Yer yuzasining albedosi bu yer sirtining energetik balansini va cho'llanish ta'sirida o'zgaradigan mikroiklim sharoitlarini, ya'ni harorat, qurg'oqchilik va namlikni aniqlovchi muhim ko'rsatkichdir.

Ushbu tadqiqotda biz takomillashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri baholash algoritmini qo'lladik va uni bir nechta Landsat sun'iy yo'ldosh sensorlariga tatbiq qilib, 1990, 2000, 2010 va 2020-yillar uchun yer yuzasi albedosini hisob-kitob ishlari olib borildi. Landsat 5 va Landsat 8 OLI (Operational Land Imager) ma'lumotlari USGS Earth Explorer tomonidan taqdim etildi va ulardan tadqiqot hududidagi albedo miqdorini aniqlashda foydalanildi.

Landsat 5 ma'lumotlaridan foydalangan holda ArcMap 10.5 dasturi asosida Quyi Zarafshonning 1990-yildagi albedo miqdori hisoblab chiqildi va natijalar 0,08 dan 0,44 gacha o'zgarгани ma'lum bo'ldi. Bu ko'rsatkichlar hududning ko'p qismi yuqori albedo qiymatlarga ega ekanligini ko'rsatadi, yuqori albedo

qiymatlari cho‘llanishni ko‘rsatadi. Tadqiqot hududining ko‘p qismi albedo 0,13 va 0,18 qiymatlari oralig‘ida joylashgan bo‘lib, bu o‘simlik qoplamlarining yo‘qligini ko‘rsatadi. 0,18 dan yuqori qiymatlar juda yuqori albedoni ko‘rsatadi, bu sho‘rlangan yoki toshloq hududlarni bildiradi. Ushbu yilda hududning aksariyat qismlarida demografik zichlik past bo‘lgan va yerdan foydalanilmagan, natijada albedo (0,13–0,18) yuqori bo‘lgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2000-yilda o‘rganilayotgan hududda albedo bo‘yicha fazoviy taqsimotning xilma-xilligi kuzatilmoqda. Qiymatlar 0,08 dan 0,44 gacha o‘zgaradi. Bu oxirgi 10 yil ichida umumiy o‘rtacha qiymatning oshmaganligini ko‘rsatadi. Ko‘plab hududlar juda yuqori albedo ko‘rsatkichlarini ifodalab, ular quruq tosh qoyalari va cho‘l hududlarini ifoda etadi.



3-rasm. Quyi Zarafshonda sirt albedo o‘zgarishi xaritasi (1990-2020 yy.)

